

**BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA "MUSIQA ADABIYOTI" FANINI O'QITISHNING PEDAGOGIK USULLARI VA DIDAKTIK ASOSLARI**

**Naǵmetova Gulzar Bulatbaevna** – *assistent o'qituvchi*

[nagmetovagulzara@gmail.com](mailto:nagmetovagulzara@gmail.com)

*O'zDSMI Nukus filiali*

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРЕДМЕТА "МУЗЫКАЛЬНАЯ ЛИТЕРАТУРА" В ДЕТСКИХ ШКОЛАХ МУЗЫКИ И ИСКУССТВА**

**Нагметова Гулзар Булатбаевна** – *ассистент преподавателя;*

*Нужеский филиал Государственного института искусств и культуры Узбекистана*

**PEDAGOGICAL METHODS AND DIDACTIC FOUNDATIONS OF TEACHING THE SUBJECT "MUSIC LITERATURE" IN CHILDREN'S SCHOOLS OF MUSIC AND ART**

**Nagmetova Gulzar Bulatbaevna** – *Assistant Teacher*

*Nukus branch of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan*

**Tayanch so'zlar:** musiqa adabiyoti, pedagogik usul, didaktika, estetik tarbiya, musiqiy idrok, fanning mazmuni, musiqiy tahlil.

**Rezyume.** Ushbu maqolada bolalar musiqa va san'at maktablarida "Musiq adabiyoti" fanini o'qitishda o'qituvchining pedagogik mahorati, fanning o'ziga xos didaktik xususiyatlari hamda o'qitishning zamonaviy usullari tahlil qilingan. Fanni o'zlashtirishda musiqani tinglash, tahlil qilish va nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash jarayonlarining psixologik-pedagogik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, darsni to'g'ri rejalashtirish va fanlararo uzviylikni ta'minlash masalalari ilmiy asoslab berilgan.

**Ключевые слова:** музыкальная литература, педагогический метод, дидактика, эстетическое воспитание, музыкальное восприятие, содержание предмета, музыкальный анализ.

**Резюме.** В данной статье анализируются педагогическое мастерство учителя, специфические дидактические особенности предмета и современные методы преподавания предмета «Музыкальная литература» в детских школах музыки и искусства. Освещены психолого-педагогические аспекты процессов слушания, анализа музыки и связи теоретических знаний с практикой при освоении предмета. Также научно обоснованы вопросы правильного планирования урока и обеспечения междисциплинарной целостности.

**Key words:** music literature, pedagogical method, didactics, aesthetic education, musical perception, subject content, musical analysis.

**Summary.** This article analyzes the pedagogical skills of the teacher, the specific didactic features of the subject, and modern methods of teaching the subject "Music literature" in children's music and art schools. The psychological and pedagogical aspects of the processes of listening, analyzing music and connecting theoretical knowledge with practice in mastering the subject are highlighted. Also, the issues of proper lesson planning and ensuring interdisciplinary integrity are scientifically substantiated.

**KIRISH.** Bugungi kunda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va estetik ruhda tarbiyalashda musiqa ta'limining o'rni beqiyos. Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'qitiladigan fanlar majmuasida "Musiq adabiyoti" fani yetakchi va majburiy fanlardan biri bo'lib, o'quvchilarda musiqiy tafakkurni kengaytirish, badiiy didni shakllantirish va jahon hamda milliy musiqa madaniyati namunalaridan bahramand etish vazifasini bajaradi. O'quv jarayonida o'qituvchi va o'quvchi hamda o'quv materiali o'rtasidagi o'zaro aloqani to'g'ri yo'lga qo'yish fan natijadorligini belgilab beruvchi asosiy omildir. "Musiq adabiyoti" fanini o'qitish pedagogdan nafaqat chuqur nazariy va tarixiy bilimlarni, balki yuksak metodik madaniyatni ham talab etadi.

Zero, o'qituvchining dars jarayonini qanday tashkil etishi, qanday usullardan foydalanishi o'quvchining musiqaga bo'lgan qiziqishini uyg'otish yoki aksincha, so'ndirishi mumkin. Ushbu maqolada musiqa adabiyoti fanini o'qitishda qo'llaniladigan pedagogik usullar, fanning maktab ta'limidagi mazmun-mohiyati va uni didaktik asosda tashkil etish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi [1.3b].

**USULLAR**

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda bolalar musiqa va san'at maktablarida "Musiq adabiyoti" fanining o'quv dasturlarini tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil hamda fanlararo uzviylikni ta'minlash (musiq adabiyoti, solfedjio, ixtisoslik) tamoyillariga tayanish kabi usullardan

foydalanildi. Shuningdek, musiqiy ta'lim pedagogikasi va psixologiyasiga oid ilmiy yondashuvlar kompleks tarzda o'rganildi.

#### NATIJALAR VA MUNOZARA.

1. *"Musiqqa adabiyoti"* fanini o'qitishda o'qituvchining metodik tayyorgarligi va pedagogik mahorati. O'qitish jarayonida o'qituvchi ma'lumotlarni yetkazib beruvchi, o'quvchi esa uni qabul qilib, o'zlashtiruvchi vazifasini bajaradi. Biroq, san'at sohasida bu jarayon shunchaki ma'lumot almashinuvdan iborat emas. Pedagogika o'z oldiga qanday maqsadlarni qo'ymas, bu maqsadlar pedagogning metodik qurolsiz amalga oshmaydi. O'qituvchining kasbiy muvaffaqiyati uning o'quv jarayonini qanchalik to'g'ri rejalashtirishi va natijani oldindan ko'ra bilishiga bog'liqdir [2.15b]. Musiqqa o'qitish metodikasi nazariyasi o'ziga xos estetik vazifalarni hal qiladi. Mashhur kompozitor va pedagog D.B. Kabalevskiy ta'kidlaganidek, musiqiy tarbiyadagi eng muhim vazifa – maktab o'quvchilarini musiqqa qiziqtirish va ularning ushbu san'at turiga bo'lgan mehrini uyg'otishdir. Yaxshi metodika har doim fanga bo'lgan qiziqishni orttiradi. U darsni faqatgina tashkiliy formalarga solib qo'ymay, uni mazmunan boyitadi. Pedagog uslubiy va didaktik tayyorgarlikka ega bo'lsa, murakkab tushunchalarni ham oson va tushunarli qilib yetkazib bera oladi. O'qituvchining darsdagi iqtidori uning materialni tanlashi, ovoz ohangi, mimetik harakatlari (mimikasi) va o'quvchilar bilan muloqot o'rnatish olish qobiliyatida namoyon bo'ladi. 2. *Maktab ta'limida fanning mazmuni va estetik tarbiyadagi ahamiyati* Musiqqa adabiyoti maktab o'quv fanlari qatorida alohida xususiyatlarga ega. U o'smir yoshdagi bolalarni musiqiy madaniyat bilan tanishtirib, ularning ruhiy olamini boyitadi. D.B. Kabalevskiy musiqani yengil va jiddiy (klassik) janrlarga ajratib, ularning inson psixologiyasiga ta'sirini chuqur tahlil qilgan. "Inson qanchalik ko'p yengil musiqqa qurshovida bo'lsa, u haqiqiy san'atdan shunchalik uzoqlashadi", deydi olim. Yengil musiqqa tinglovchidan chuqur aql, fikr va kuchli hissiyot talab etmaydi. Ammo murakkab klassik musiqqa insonni o'ylashga, mushohada yuritishga majbur qiladi. Shu sababli, musiqqa adabiyoti darslarida o'quvchilarni jiddiy musiqani tushunishga tayyorlash, ularda badiiy didni shakllantirish fan oldidagi eng mas'uliyatli vazifadir.

Musiqqa adabiyoti fani mazmuni o'z ichiga xalq qo'shiqlari va kuylari, mashhur kompozitorlarning hayoti va ijodi, musiqqa nazariyasiga oid tushunchalar hamda asarlarni tinglab tahlil qilish

ko'nikmalarini qamrab oladi. O'quvchilarda musiqiy idrokni rivojlantirish uchun fanlararo uzviylik muhim rol o'ynaydi. Musiqqa adabiyotida o'zlashtirilgan bilimlar ixtisoslik (cholg'u ijrochiligi), xor va solfedjio darslarida amaliyot bilan bog'lanadi. Taniqli pedagog S.M. Maykapar musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish uchun asarlarni to'liq va chuqur o'rganish eng yaxshi usul ekanligini alohida ta'kidlagan. Eshitish va tahlil qilish (analiz) orqali o'quvchilar musiqiy asarning tuzilishi, janri va xarakteristikasini anglab yetadilar. 3. *"Musiqqa adabiyoti"* fanini didaktik usulda o'qitish va darsni loyihalashtirish. O'qituvchi faoliyatini belgilab beruvchi eng asosiy normativ hujjat – bu fanning o'quv dasturidir.

Dastur asosida o'qituvchi o'quvchilarning yoshi, individual qobiliyatlari va musiqiy tayyorgarligini hisobga olgan holda kalendar-mavzuli reja (ish rejasi) tuzib chiqadi.

Kalendar-mavzuli rejada dars sanalari, mavzular nomi, o'rganiladigan asarlar va kompozitorlar aniq ko'rsatiladi [3.7b].

Zamonaviy dars – bu o'ziga xos pedagogik asardir. O'qituvchi dars jarayonida ssenarist, rejissyor va ijrochi vazifalarini o'taydi. Darsning samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi didaktik va psixologik talablarga qat'iy rioya qilinishi lozim [4.40b].

- *Darsning asosiy maqsadining aniqligi:* O'qituvchi dars orqali o'quvchilarda qanday bilim muhitini yaratishini oldindan bilishi kerak.

- *Ta'lim va tarbiya maqsadining birligi:* Har bir musiqqa darsi nafaqat bilim berishi, balki o'quvchini ma'naviy jihatdan tarbiyalashi, mehnatga va tartibga o'rgatishi lozim.

- *Darsning aniq tashkil etilishi:* Darsdagi intizom va vaqtdan unumli foydalanish. *O'quvchilarni qiziqitira olish:* O'quvchilarning diqqatini tortish uchun qiziqarli usullar va interaktiv metodlardan foydalanish.

- *O'quv materialining to'g'ri tanlanishi:* Dasturga muvofiq, vaziyatga mos ravishda misollar va nazorat savollarini tayyorlash [5.13b].

- *Darslar o'rtasidagi bog'liqlik (uzviylik):* Yangi mavzu mutlaqo izolyatsiyada o'tilmasligi, balki oldingi va keyingi mavzular bilan mantiqiy va psixologik bog'liqlikda olib borilishi shart. O'tilgan mavzu qanchalik yaxshi o'zlashtirilsa, keyingi mavzuni tushunish shunchalik oson kechadi [5.27b].

O'qituvchining darsga tayyorgarligi uzluksiz jarayondir.

U har bir dars oldidan o'quv va metodik adabiyotlarni ko'rib chiqishi, musiqqa asarlarini

qayta tinglashi, fortepianoda chalib ko‘rishi kerak. Bularsiz yuqori natijaga erishib bo‘lmaydi.

#### XULOSA

Bolalar musiqa va san‘at maktablarida “Musiqa adabiyoti” fanini o‘qitish shunchaki musiqiy tarix va nazariyani yodlatish emas, balki bolaning ruhiy dunyosini, uning estetik didini shakllantiruvchi murakkab psixologik-pedagogik jarayondir.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, fanni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish o‘qituvchining metodik qobiliyatiga, darsni didaktik tamoyillar asosida to‘g‘ri loyihalashtirishiga va o‘quvchilarning musiqani eshitish (idrok etish)

qobiliyatlarini qanchalik rivojlantira olishiga bevosita bog‘liq.

Nazariy bilimlarning amaliyot (solfedjio, cholg‘u ijrochiligi) bilan bog‘lanishi, o‘quvchilarning asarlar tahlilida mustaqil fikrlay olishi hamda kompozitorlar hayotini o‘rganish orqali musiqaning jamiyatdagi o‘rnini anglab yetishlari – bularning barchasi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o‘qituvchining tinimsiz ijodiy mehnati orqali amalga oshadi. Xulosa qilib aytganda, musiqa adabiyoti o‘qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlod qalbida san‘atga, go‘zallikka muhabbat uyg‘otuvchi ma’naviyat me’moridir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-sonli qarori.
2. Лагутин А. Методика преподавания музыкальной литературы в детской музыкальной школе. Издательство "Музыка" – Москва, 1982. – С. 224.
3. Шорникова М.И. Музыкальная литература. Музыка, ее формы и жанры: 1 год обучения. – М.: Феникс, 2011.
4. Kabalevskiy D.B. Boshlang‘ich maktablarda musiqa tarbiyasi. (Dissertatsiya matni asosida umumlashtirilgan ).
5. Владимиров В., Лагутин А. Музыкальная литература. Для IV класса ДМШ. – М.: Музыка, 1988.
6. Островская Я.Э., Фролова Л.А. Музыкальная литература. Учебное пособие для детской музыкальной школы. 1-й год обучения. – С-Пб.: Композитор, 2008.